XOJAGON NAQSHBANDIYA TA'LIMOTIDA SHAXS KAMOLOTIGA TA'SIR ETISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Nabiyev Muhrodbek Bobirovich - Zarmed Universiteti Boshlang'ich ta'lim, pedagogika va psixologiya kafedrasi o'qituvchisi
E-mail: nmuxrod@gmail.com

Qadimgi zamonlardan Turon, Turkiston, Movarounnahr degan nomlar bilan atalib kelgan Markaziy Osiyo mintaqasi madaniy, ma'naviy va ilmiy merosining salmoqli qismi tasavvuf bilan bog'liq. Zero, xalqimiz turmush tarzi, madaniyati va ijtimoiy-falsafiy qarashlariga katta ta'sir o'tkazgan tasavvuf ajdodlarimizning diniy e'tiqodidan tortib ijodiy faoliyatining barcha qirralarigacha bo'lgan sohalar, jumladan, ilm-fan, adabiyot va san'atda u yoki bu darajada o'z aksini topdi.

Qadimiy Movarounnahr zamini islom tasavvuf beshiklaridan biri hisoblanadi, VIII-XI asrlarda islom olamining boshqa yirik markazlari qatori Markaziy Osiyoda ham so'fiylik harakati ildiz otib, tasavvufning nazariy va amaliy asoslari shakllandi, XII asrdan boshlab esa bu o'lkada, keyinchalik, butun islom dunyosida dong taratgan *yassaviya, xojagon-naqshbandiya, kubraviya, ishqiya* kabi tariqatlari vujudga keldi. Bular orasida islom olamida birinchilardan bo'lib vujudga kelgan eng qadimiy va ko'p mamlakatlarda tarqalgan eng nufuzli tariqatlardan biri sifatida mashhur bo'lgan *xojagon-naqshbandiya* tariqati o'zining tarkidunyochilikni qoralovchi, insonparvarlik, vatanparvarlik va mehnatsevarlikni targ'ib etuvchi ta'limoti bilan ajralib turadi. [15]

Bir necha asrdan buyon xalq og'zidan tushmayotgan "Dilba yoru dastba kor" hikmali so'zining nechog'lik zarurligi, inson hayotining bosh mazmuni sifatida e'tirof etilayotganligi bejizga emas. Sababi yillar davomida sinovda o'tgan va uning tarbiya usullarida hech qanday ortiqcha usul va uslubning bo'lmasligi, bugungi kunda bu tariqat yo'lining dunyoning deyarli barcha qit'alarida tarqalishi bunga misol bo'la oladi. Naqshbandiya ta'limotining boshqa ta'limotlardan farqli tomonlaridan biri, tayin etilgan qandaydir bir ko'rinish, kiyim bo'lmaydi. Naqshbandiylar xalq bilan bo'lishiga bosh g'oyalardan biri "zohirba ba xalq, botin ba haq"ya'ni ko'rinishda xalq bilan bo'l ammo botinda Haq bilan birga bo'l degan g'oya ham sabab hisoblanadi. Ular aynan o'zini naqshbandiy sifatida tanitmaydi. Bu esa naqshbandiylikning o'ziga xos bir jihati hisoblanadi. Xojagon-naqshbandiylar mo'tadil va o'rtamiyona bo'lib, chillada o'tirish va xilvatda o'tirish kabi odatlarni "xilvat dar anjuman" va "safar dar vatan" kabi qoidalar bilan chiqarib tashlangan. Xojagon-naqshbandiya tariqati peshvolari oddiy turmush tarzini tutish hamda bekorchilikdan saqlanish kabi

[15] Жожагон-нақшбандия тариқати ва етти пир / Ғ. Раззоқов, К. Раҳимов. – Тошкент:<<O'zbekiston>> НМИУ 2020. 168 б.

xususiyatlar bilan ajralib turishgan. Bu esa, o‘z navbatida, xojagon-naqshbandiya tariqatining keng tarqalishi omili bo‘lib xizmat qildi.[16]

Bugungi kunda xojagon-naqshbandiya ta'limotining turli jabhalarda o‘rganish va uni hayotga tadbiq etish hozirgi yetuk barkamol insonni tarbilash, bugungi globallashgan zamonning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Bu ta'limot asosida shaxs kamolotining bugungi kunda ijtimoiy-psixologik tomonlarini yoritish aynan psixologiya fani uchun ham asosiy dasturulamal hisoblanadi. Chunki psixologiyada "Ideal men" degan tushuncha bo‘lib, aynan shaxsdagi "Men"lik holatlarini tahlil qilish uchun ham unga xos bo‘lgan psixologik metodlarni qo‘llash bugungi kunda asosiy masalalardan biri bo‘lishini taqozo etmoqda. Aynan mental xususiyatlardan kelib chiqqan holda bu ta'limotning shaxsga ta'siri juda ham kuchli hisoblanadi. Chunki ma'lum bir jamiyatda shaxslar tomonidan etirof etilgan e'tiqodiy masalalar va ularga amal qilish nuqtai nazaridan ham bu ta'limotning metodlaridan foydalanish muqsadga muvofiq hisoblanadi. Sotsiogenetik yondashishga binoan, shaxsda ro‘y beradigan o‘zgarishlar jamiyatning tuzilishi, ijtimoiylashish (sotsializatsiya) usullari, uni qurshab turgan odamlar bilan o‘zaro munosabati vositalaridan kelib chiqqan holda tushuntiriladi. Ijtimoiylashuv nazariyasiga ko‘ra, inson biologik tur sifatida tug‘ilib, hayotning ijtimoiy shart-sharoitlarining bevosita ta'siri ostida shaxsga aylanadi. Shaxs – alohida individ, mohiyatan yaxlit ijtimoiy-axloqiy olam. U o‘zida inson mohiyatini, uning mavjudot sifatidagi qadriyatini mujassam etadi. Shaxs ijtimoiy-gumanitar fanlarda o‘z yo‘nalishi, tadqiqot ob'yekti va maqsadi nuqtai nazaridan turlicha talqin etiladi. U o‘ta murakkab, ziddiyatli, qarama-qarshi, o‘zini o‘zi inkor etadigan mavjudot sifatida, biologik, fiziologik, ijtimoiy, ma'naviy, ruhiy, axloqiy va estetik aql idrok, tafakkur ob'yekti sifatida, hatto, falsafiy va mantiqiy, yashash huquqi va hayot mantig‘i jihatidan tadqiqot manbaiga aylanishi mumkin. Bu so‘zlardan shuni tushunish mumkinki, shaxs bo‘lib shakllanishda yoki mukammallikka erishish uchun shaxslararo munosabat bo‘lishi lozim. Bu xususda hadishi shariflarda Imom Termiziydan rivoyat qilingan hadisda "Nabiy sollalohu alayhi vasallam dedilar: Insonlar bilan aralashib yurib, ularning ozorlariga sabr qiladigan musulmon insonlarga aralashmaydigan va ularning ozorlariga sabr qilmaydigan musulmondan yaxshiroqdir". Islom dinida odamlarning ozoriga ko‘nib yashash mo‘minlikning bir belgisidir deyilgan. Ya'ni ozorlagan insoningdan qoch yoki uni kechirma deyilmagan, aksincha ularni boricha qabul qil deyilgan. Shaxs komillik yoxud ideallikka intilishi yo‘lida albatta irodaviy zo‘r berish orqali, diqqatni chalg‘ituvchi voqea hodisalaradan xoli, analiz va sintez jarayonlarida diqqatliroq bo‘lish talab etiladi. Har bir voqea hodisaga alohida ahamiyat berishlik, uning "Ehtiyojlar ierarxiyasi" muallifi Abraham Maslou ta'kidlaydiki, "Men

[16] Жожагон-нақшбандия тариқати ва етти пир / Ғ. Раззоқов, К. Раҳимов. – Тошкент:<<O'zbekiston>> НМИУ 2020. 168 б

mutlaqo aminmanki, odam faqat non bo‘lmagan sharoitda non bilan yashaydi", deb tushuntirib, shu bilan birgalikda Maslou. "Ammo non ko‘p bo‘lsa va oshqozon doimo to‘q bo‘lsa, insonning intilishlari nima bo‘ladi?" Yuqori ehtiyojlar paydo bo‘la boshlaydi va bizning tanamizni fiziologik ochlik emas, balki yuqori darajadagi ehtiyojni qondirish hissi boshqaradi. Bir ehtiyoj qondirilsa, boshqalari paydo bo‘ladi, undanda yuqori va yuqori. Shunday qilib, asta-sekin, bosqichma-bosqich, inson o‘z-o‘zini rivojlantirish zarurati paydo bo‘ladi - ehtiyojlarning eng yuqorisi’’ deb barkamollikka yetishishning o‘ziga xos yo‘li sifatida ehtiyojlar misolida tushuntirib ketgan. Inson o‘zining eng kichik sanalgan fiziologik ehtiyojlaridan tortib toinki: ochlik, tashnalik va boshqalar; Xavfsizlik / himoya ehtiyojlari: qulaylik, yashash sharoitlarining doimiyligi va yaxshiligi; Ijtimoiy ehtiyojlar: boshqalar tomonidan qabul qilinish, ijtimoiy aloqalar, muloqot, mehr, boshqasiga g‘amxo‘rlik va o‘ziga e'tibor kabi xususiyatlarning birgalikdagi faoliyati; O‘z-o‘zini hurmat qilish Ego: boshqalardan hurmat, tan olish, muvaffaqiyat va yuqori baholarga erishish, ko‘tarilish kabi ehtiyojlar; Ma'naviy: bilim, o‘zini namoyon qilish, o‘zligini kashf etish, o‘zini o‘zi aniqlash. o‘zini namoyon etishgacha bo‘lgan ehtiyojlarni sanab o‘tgan bo‘lib, bular eng sodda ko‘rinishi sifatida tahlil etsak, islom ta’limotida har bir qarash alohida e’tirof etilgan. Islom insonning tug‘ilishdan tortib, to barkamollikka yetishgacha bo‘lgan yo‘lni ta’riflab, bir necha oson va foydali yo‘llarni ko‘rsatadi. Islomda yoshlar tarbiyasiga alohida e'tibor qaratilgan. Shuning uchun ham yoshlar tarbiyasini qachondan boshlash kerak degan savolga oila qurishdan oldin, ya'ni onasini (yoki otasini) tanlashdan avval deb javob beriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Иймон. – Т.: Hilol-Nashr 2020. – 368 б
2. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Ҳалол очиқ-ойдиндир, ҳаром очиқ-ойдиндир. – Т.: Hilol-Nashr 2022. – 168 б
3. Қосимов Убайдулло Аҳрорович. Тасаввуф психологияси шахс тараққиётида муҳим омил. – Т: “IJOD-PRESS” 2019. – 192 б.
4. Эргаш Ғозиев. Умумий психология. – Т.: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти 2010. – 544 б.
5. Эргаш Ғозиев. Онтогенез психология. – Т.: Noshir 2010. – 360 б.
6. U.A.Butayeva. Shaxs psixologiyasi. – Samarqand 2021. – 304 b.
7. Г.Н.Наврўзова. Нақшбандия тасаввуфий таьлимоти ва баркамол инсон тарбияси. Ўзбекистон Республикаси ФА “Фан” нашриёти, 2005 йил.
8. М.Х.Холназарова Нақшбандия тариқатида комил инсон муаммосининг психологик хусусиятлари. -Т:. “Fan va texnologiya”, 2014, 156 бет.
9. Bobirovich, N.M. (2022). Ilk o‘spirinlik davrida shaxs shakllanishining psixofiziologik asoslari va shaxslararo munosabatlar. Ijtimoiy fanlarda innovasiya onlayn ilmiy jurnali, 2(12), 68–71. Retrieved from http://sciencebox.uz/index.php/jis/article/view/5047
10. Muhrodbek Bobirovich Nabiyev (2021). Ilk o‘spirinlik davrida shasxlararo munosabatlar shakllanishining psixologik asoslari. Scientific progress, 2 (6), 1146-1149.